

SOYA HAR XIL NAV VA NAMUNALARINING TEZPISHARLIGINI BAHOLASH NATIJALARI

Mamadali Kudratovich Lukov

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti dotsenti q. x. f. n.

Abdurozoq Panjievich Shomanov

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Sitora Chorshanbieva

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Surxondaryo viloyatining bir xil tuproq-iqlim sharoitida ekilgan soya har xil nav, namunalarning vegetatsiya davrini o'rganish uchun o'tkazilgan fenologik kuzatishlar natijalarining tahlili va ajaratilgan navlarning tepisharligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Soya, o'simlik moyi, nav, namunalar, tezpisharlik, fenologik kuzatishlar, faza, fazalararo davri, vegetatsiya davri, poya uzunligi, hosil elementlari.

KIRISH

Soya yer yuzida keng tarqalgan qishloq xo'jalik ekinlaridan biri hisoblanadi. Soya urug'ining tarkibida ko'p miqdorda 35–52 % oqsil, 12–27 % moy va turli vitaminlar A, V, S, D, Ye, qator fermentlar saqlanadi. Soyaning oqsili yengil eriydigan fraksiyalardan (94%gacha) iborat bo'lib, uning tarkibida ko'p miqdorda almashib bo'lmaydigan aminokislotalar saqlanilib, lizin aminokislotasi bug'doy uniga nisbatan 9 marta, no'xat, xashaki dukkaklarning doniga nisbatan 2–3 marta, qoramol go'shtiga nisbatan 2 marta ko'p [3; 96-b., 4; 111-b.].

Soyaning urug'idan uch xil oqsilli mahsulot tayyorlanadi: tarkibida 70 % oqsili bor konsentratlar, izolyatlar (90% gacha oqsilli) va go'shtdan tayyorlanadigan mahsulotga o'xshash tarkibiy shakllangan mahsulotlar. Bu mahsulotlar haqiqiyliklaridan ancha arzon bo'lib, to'yimliliigi va hazm bo'lishi bo'yicha hech qolishmaydi. Soya moyi yoqimli tamli va yaxshi kulinar xususiyat larga ega, u organizm uchun almashtirib bo'lmaydigan fiziologik faol to'liq to'yingan moy kislotalaridan iborat [5;-79 b., 8; 121 b.]

Soyaning qimmatli xo'jalik beligilarini asosiylaridan biri, uning tezpisharligidir. Vegetatsiya davri davomiy ligiga qarab

soya navlari 9 ta guruhga bo'linadi. Ya'ni o'suv davri 80 kundan kam bo'lganlari o'ta tepishar va 170 kundan ko'p bo'lganlari kechpishar navlarga oid bo'ladi. Shularga muvofiq ravishda yaxshi o'sib rivojlanish uchun tepishar navlar 1700 °S gacha, kechpishar navlar n 3500 °C gacha harorat talab qiladi. Jumladan tepishar navlarning o'suv davri 91-110 kun bo'lib, ular uchun qulay harorat 1700-1900 °S hisoblanadi [6;-3 b., 2;- 94 b.]. Soya O'stiriladigan mintaqalarning ekologik sharoitlarini hisobga olgan holda, shu mintaqaga xos tepishar navlarini yaratish lozim. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish uchun samarali harorat 3400 °C dan ziyot ekanligini hisobga olganda, bu viloyat sharoitida soyaning tepishar navlarini ertagi va takroriy ekin sifatida ekib undan yuqori hosil yetishtirish mumkin. Ertapishar navlarni o'stirishning ahamiyati quyidagilar: Yozda boshqoli don ekinlaridan bo'shagan yerlarda tepishar navlardan bevosita urug' hosil yetishtiriladi. Ertagi muddatda ekilgan soyaning tepishar nalaridan iyun oyining ikkinchi o'n kunligigacha hosil to'liq yetiladi [6;-13 b., 1;- 218 b.]. G'o'za bilan bir vaqtda qo'shma ekin sifatida ekilgan soyaning hosili paxta ochilguncha yig'ishtirib olinadi Bunday qo'shma ekindan faqat soyadan 6-8 s/ga.cha urug' hosil yetishtiriladi. Shu yuqoridagilarni inobatga olganda, soyaning tepishar va yuqori hosilli navlarini yaratish va ajratish dolzarb masala hisoblanadi

Biroq iqlimi juda issiq, va o'zgaruvchan va tuprog'ining unumdorligi past Surxodaryo viloyati sharoitida soyaning yangi navlar yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilmagan [6;-88 b.] Shu yuqordagilarni hisobga olganda Surxondaryo viloyatiningg ekstremal sharoitlarida kelgusida, sifatli va yuqori hosildorlikni taminlaydigan soyaning tepishar nav larini ajratish uchun 2022-2023 yillar ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazildi.

METODLAR VA MATERIALLAR

Dala tajribalari Termiz tumanida joylashgan Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining ilmiy tajriba xo'jaligi yerlarida o'tkazildi. Tajriba maydonining tupog'i cho'l qumoqli och bo'z tuproqli, oziq moddalar bilan juda kam taminlangan. Sizot suvining sathi 12-13m. Tajribada ob'ekt sifatida mahalliy sharoitda yaratilgan 4ta, Rossiya seleksiyasiga xos 4ta va Turkiya davlatiing seleksiyasiga oid 5ta va Hindiston seeksiyasiga oid 1ta namunalardan foydalanildi. Nav va namunalarni taqqoslab o'rganish uchun Davlat reestriga kiritilgan Genetik-1 navi standart sifatida qo'llanildi.. Dala tajribalari 2022 va 2023 yillarda seleksiya ishining nazorat ko'chatzorida sinaldi. . Paykalcha maydoni 24 kv.m. Paykalcha ikki qatorli, qator orasi .0,6m., uzunligi 20 .m , 1 chiziqli ,metrda 33 dona urug' ekildi..Tajriba 4 qaytariqda

joylashgan .Dala tajribasida fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchashlar, hosil zlementlarini hisobga olish ishlari o'tkazildi. 4 aprelda ekilgan keyin, maysalash davri va undan keyingi rivojlanish fazalari kuzatilib, fazalarining sodir bo'lishi asosida falararo davri anqlandi Kuzatish va sinash o'tkazish ishlarini o'tkazishda O'zbekiston paxtachilik ITI, (2007y) Don dukkakli ekinlar ITI (2014) O'zbekiston o'simlikshunoslik ITI (2008 y.)va umumqabul qilingan metodlardan foydalanildi.

1-jadval

Soya har xil nav va namunalarida fenologik kuzatishlar ma'lumotlari

T/r	Navlarning nomlanishi	Kelib chiqishi	Ekish muddati, oy-kun	Rivojlanish fazalarining sodir bo'lishi										Vegetatsiya davri, kun
				Maysalash		Uchtalik barglarning hosil bo'lishi		G'unchalash		Gullash		Pishish		
				Boshl	To'liq	Boshl	To'liq	Boshl	To'liq	Boshl.	To'liq	Bosh.	To'liq	
1	Genetik-1 (standart)	O'zbekiston	1.04	5.04	8.04	16.04	20.04	25.04	30.04	9.05	13.05	25.06	5.07	86
2	Beda	Rossiya	1.04	6.04	9.04	17.04	21.04	27.04	1.05	11.05	16.05	13.07	23.07	104
3	Vavilov	Hindiston	1.04	7.04	10.04	18.04	22.04	28.04	2.05	12.05	17.05	18.07	29.07	110
4	Mars	O'zbekiston	1.04	5.04	8.04	17.04	19.04	26.04	1.05	10.05	15.05	1.07	11.07	92
5	Dilhuz-100	O'zbekiston	1.04	5.04	8.04	16.04	20.04	26.04	29.04	10.05	13.05	22.06	3.07	84
6	Optima	Rossiya	1.04	6.04	9.04	16.04	19.04	26.04	30.04	14.05	20.05	18.07	29.07	110
7	Selena	Rossiya	1.04	6.04	9.04	17.04	21.04	27.04	1.05	12.05	16.05	13.07	23.07	104
8	Slaviya	Rossiya	1.04	6.04	8.04	17.04	21.04	27.04	2.05	13.05	17.05	14.07	27.07	108
9	TerAIRI	O'zbekiston	1.04	5.04	8.04	16.04	20.04	26.04	30.04	10.05	14.05	25.07	6.07	87
10	Atlas	Turkiya	1.04	7.04	11.04	18.04	22.04	28.04	2.05	14.05	21.05	23.07	4.08	115
11	Supermen	Turkiya	1.04	7.04	11.04	18.04	22.05	28.04	3.05	15.05	22.05	26.07	7.08	118
12	Signum	Turkiya	1.04	6.04	8.04	17.04	22.04	27.04	1.05	13.05	19.05	17.07	27.07	108
13	Erisoy	Turkiya	1.04	7.04	10.04	19.04	22.04	28.04	2.05	13.05	20.05	21.07	30.07	111
14	Atlas-2	Turkiya	1.04	6.04	9.04	19.04	19.04	26.04	30.04	13.05	20.05	22.075	29.07	110

NATIJARLAR

Soya nav va navlarining tezpisharligi fenologik kuzatishlar asosida aniqlandi. Fenologik kuzatishlarda nav va namunalarning rivojlanish fazalari o'rganildi va fazalararo davri aniqlandi. Fazalararo davrlari jamlanganda ularning o'suv davri aniq bo'ldi.

Rivojlanish fazalarining dastlabki maysalash va uchtalik barg chiqarish fazalarida atiga 1-2 kun farqlanishlar kuzatildi. Navlar aro kuzatishda gullash fazasida farqlanishlar sezilarli darajada ya'ni 7-8 kungacha bo'ldi. Eng katta farqlanishlar pishish davrida standart (Genetik—1 navi)ga nisbatan 2 kun kam (Dilhuz namunasida) eng ko'p- 32 kun (Supermen namunasida) kuzatildi. Ma'lumotlar tahlili natijalarida aniq bo'ldiki, qaysi nav oldin gullasa bu navning o'suv davri qisqa bo'ladi va qaysi navning gullash fazasi kechiksa bu navning o'suv davri ko'p bo'ladi. Tezpisharlik ma'lumotlari bo'yicha maysalash davridan urug'lar to'liq yetilgunga qadar ya'ni navlarning veetatsiya davri 86- kundan 118 kungacha bo'lganligi aniqlandi

Tezpisharligi bo'yicha vegetatsiya davri 84 kundan 92 kungacha bo'lgan O'zbekiston seleksiyasiga oid yangi namunalar ekanligi aniqlandi.. Vegetatsiya davri 100 kundan 110 kungacha bo'lgan nav va namunalar Rossiya seleksiyasiga oid yangi navlar va namunalar, vegetatsiya davri 111 kundan 118 kungacha bo'lgan namunalar Turkiya davlatining seleksiyasiga oid bo'lib bu navlarning ayrimlari hozirgi paytda O'zbekiston sharoitida sinov tariqasida ekilib o'stirilmoqda. O'rganilgan navlar va namunalar bo'yicha biometrik o'lchashlar va hosildorlik ma'lumotlari ko'rsatishicha, O'suv davri qisqa ya'ni tezpishar navlarning poyasi uzunligi o'rtacha 45-60sm. va hosildorligi o'rtacha bo'lib 30-35 s/ga hosildorlikni ta'minlaydi Vegetatsiya davri 110 kundan ziyot bo'lgan o'rta ertapishar navlar poyasining uzunligi 125-135 sm. bo'lib 40 s/ga dan ziyot hosildorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

O'zbekiston seleksiyasiga oid past bo'yli determenant tipdagi namunalardan o'ta tezpishar navlarni yaratish uchun seleksiya ishlarini davom ettirish maqsadga muvofiq. Turkiya seleksiyasining uzun poyali-140 sm. gacha va hosil elementlar yuqori ko'rsatkichlarga ega namunalaridan asosiy ekin sifatida ekishga mos yangi navlarni yaratish tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. Abdulkarimov D.T. Ergashev I.T., Bekmuralova X.K. Umumiy seleksiya va urug'chilik T.2021y 334b.
2. Atabayeva X,N, «Soya», Toshkent, «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi», 2004 y, 96 bet.
3. Atabaeva H. N, Xudoyqulov J.B. O'simlikshunoslik /darslik /Soya/T 2020 y. 138-139 .b.
4. Oripov R.O, Xalilov N. X O'simlikshunoslik T. 2007 88 b.
5. Yaqubjonov O., Tursunov S. O'simlikshunoslik T(179 b. Soya).”Fan va texnologiya” y.299 b.
6. Xalilov N., Lukov M., Isroilov A. Soyaning yangi navlari agrotexni kasi O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali № 6. T.2017 y. 13 b.
7. Yormatova D. Xushvaktova H. Moyli ekinlar Toshkent 2009 y 88 b.
8. Yormatova D. «Soya» Mexnat. T. 1989 . 121 b.

